O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI

# Aholining inflyatsion kutilmalari

Avgust oyida aholining kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalari o‘tgan oyga nisbatan biroz pasayib, **9,8** foizga teng bo‘ldi.

**Avgust, 2026 | Jami 3 248 ta respondent qatnashdi**




| **Inflyatsion kutilmalarning omillari** (respondentlar ulushi, foizda) | 2025 | | | | 2026 | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | sen | okt | noy | dek | yan | fev | mar | apr | may | iyun | iyul | avg |
| Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi | 46 | 46 | 49 | 50 | 48 | 44 | 45 | 51 | 59 | 56 | 57 | 53 |
| Yoqilg‘i va energiya narxining qimmatlashishi | 41 | 42 | 40 | 47 | 47 | 40 | 41 | 44 | 45 | 46 | 53 | 52 |
| Transport xarajatlarining oshishi | 25 | 25 | 24 | 29 | 30 | 25 | 25 | 27 | 29 | 27 | 33 | 32 |
| Ish haqi va nafaqalarning oshishi | 27 | 26 | 23 | 25 | 22 | 24 | 19 | 24 | 15 | 23 | 26 | 28 |
| Monopoliya va narxlarning sun’iy oshirilishi | 22 | 23 | 20 | 24 | 22 | 20 | 19 | 22 | 23 | 22 | 24 | 21 |
| Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi | 25 | 27 | 26 | 26 | 23 | 24 | 23 | 28 | 19 | 19 | 21 | 21 |
| Valyuta kursining o‘zgarishi | 22 | 22 | 20 | 23 | 24 | 28 | 27 | 27 | 19 | 19 | 19 | 14 |

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan asosiy omillar sifatida **ish haqi** va **nafaqalar oshirilishini** ta’kidlagan aholi respondetlari ulushi ko‘paygan bo‘lsa, **kommunal xizmatlar**, **yoqilg‘i-energiya resurslari, transport xarajatlari qimmatlashishi**, **monopoliya** va **narxlarning sun’iy oshirilishi** hamda **valyuta kursi o‘zgarishini** qayd etgan respondentlar ulushi kamaygan.

# Tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari

Tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari ham oʻtgan oyga nisbatan pasayib, **9,6** foizni tashkil etdi.

**Avgust, 2026 | Jami 1 800 ta respondent qatnashdi**




| **Inflyatsion kutilmalarning omillari** (respondentlar ulushi, foizda) | 2025 | | | | | | | | | 2026 | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | sen | okt | noy | dek | yan | fev | mar | apr | may | iyun | iyul | avg |
| Yoqilgʻi va energiya resurslari qimmatlashishi | 41 | 45 | 42 | 45 | 44 | 42 | 43 | 48 | 49 | 51 | 54 | 55 |
| Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi | 44 | 47 | 46 | 46 | 43 | 44 | 40 | 50 | 59 | 58 | 53 | 50 |
| Transport xarajatlarining oshishi | 30 | 33 | 30 | 37 | 35 | 34 | 33 | 39 | 33 | 37 | 39 | 34 |
| Ish haqi va nafaqalarning oshishi | 29 | 25 | 23 | 26 | 24 | 23 | 24 | 26 | 18 | 24 | 26 | 27 |
| Xomashyo narxlarining qimmatlashishi | 26 | 28 | 26 | 25 | 24 | 27 | 26 | 33 | 19 | 23 | 21 | 19 |
| Soliq yukining yuqoriligi | 24 | 23 | 21 | 24 | 20 | 23 | 23 | 27 | 19 | 19 | 18 | 15 |
| Valyuta kursining oʻzgarishi | 22 | 21 | 19 | 23 | 26 | 31 | 24 | 28 | 16 | 18 | 21 | 14 |

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim koʻrsatishi mumkin boʻlgan asosiy omillar sifatida **yoqilgʻi-energiya resurslari, ish haqi** va **nafaqalar oshirilishini** qayd etgan tadbirkorlar ulushi koʻpaygan boʻlsa, **kommunal xizmatlar, transport xarajatlari va xomashyo narxlari qimmatlashishi, soliq yukining yuqoriligi** hamda **valyuta kursi oʻzgarishini** belgilagan respondentlar ulushi kamaygan.

# Inflyatsion kutilmalar - sohalar kesimida

Aholi orasida yuqori inflyatsion kutilmalar **axborot texnologiyalar** va **ommaviy axborot** vositalari sohalarida kuzatilgan boʻlsa, kelgusida narxlar shakllanishi boʻyicha nisbatan past kutilmalar **qishloq xoʻjaligi** vakillari tomonidan qayd etildi.

**Avgust, 2026** | **Respondentlar: aholi – 3 248 ta, tadbirkorlar – 1 800 ta**

## Aholi




## Tadbirkorlar




Tadbirkorlarning yuqori inflyatsion kutilmalari **tashish xizmati** sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar tomonidan qayd etilgan boʻlsa, kelgusida narxlar shakllanishi boʻyicha nisbatan past kutilmalar **hunarmandchilik** sohasida kuzatildi.

# Inflyatsion kutilmalar - hududlar kesimida

Aholining eng yuqori inflyatsion kutilmalari **Farg‘ona viloyatida** kuzatilgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich **Jizzax viloyatida** qayd etildi.

**Avgust, 2026** | **Respondentlar: aholi – 3 248 ta, tadbirkorlar – 1 800 ta**

## Aholi




## Tadbirkorlar




Tadbirkorlarning eng yuqori inflyatsion kutilmalari **Qoraqalpog‘iston Respublikasida** kuzatilgan bo‘lsa, nisbatan past kutilmalar **Navoiy viloyatida** faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.

# Inflyatsion kutilmalar (aholi)

**Daromadi 7 mln so‘mdan yuqori** bo‘lgan aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllandi.

**Avgust, 2026 | Jami 3 248 ta respondent qatnashdi**




## Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalar bo‘yicha javoblar taqsimoti



# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Avgust oyi yakunlariga koʻra, aholi tomonidan sezilgan inflyatsiya darajasi oʻtgan oyga nisbatan biroz pasayib, **10,1** foizni tashkil etdi.

**Avgust, 2026 | Jami 3 248 ta respondent qatnashdi**







Sezilgan inflyatsiya darajasining eng yuqori darajasi **Fargʻona viloyatida** qayd etilgan boʻlsa, eng past daraja esa **Jizzax viloyatida** kuzatildi.

# Sezilgan inflyatsiya omillari (aholi)

Iyul-avgust oylarida aholi tomonidan narxlarida yuqori oʻsish kuzatilgan asosiy turdagi tovar va xizmatlar

**Avgust, 2026 | Jami 3 248 ta respondent qatnashdi**



# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

**Daromadi 4 mln so‘mdan yuqori bo‘lgan** aholining sezilgan inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori shakllandi.

**Avgust, 2026 | Jami 3 248 ta respondent qatnashdi**







Aholi tomonidan yuqori sezilgan inflyatsiya darajasi **axborot texnologiyalar** va **ommaviy axborot** vositalari sohalarida kuzatilgan bo‘lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **qishloq xo‘jaligi** vakillari tomonidan qayd etildi.